

OG'IR XASTALIKLARI BO'LGAN BOLALAR.

Jo'rayeva Sohiba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Mahmudjonova Mohlaroyim

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 611-23- guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada og'ir xastalikka chalingan bolalar turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi. Og'ir kasallikka chalingan bolalar va ularning ijtimoiy, psixologik hamda tibbiy ehtiyojlarini yoritadi. Maqolada, shuningdek, jamiyatda bolalarga nisbatan qabul qilinadigan qarashlarni, ularning huquqlarini ta'minlash, ular uchun sog'lom hayot sharoitlari yaratish va individual ta'limga jalb etish borasida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: og'ir xastalikka chalingan bolalar va ularning turlari; onkologik kasalliklar; yurak xastaliklari; genetik kasalliklar; ijtimoiy, psixologik va tibbiy ehtiyojlar; individual ta'limga jalb qilish.

Annotation: The article discusses the types of children with severe disease, their unique features. Children with serious illness and their social, psychological and medical needs. The article also provides detailed information on the development of children in society, creating their rights, creating healthy living conditions and involvement in individual education.

Keywords: children with severe disease and their types; oncological diseases; heart disease; genetic diseases; Social, psychological and medical needs; involving individual education.

Аннотация: В статье рассматриваются типы детей с тяжелыми заболеваниями и их специфические особенности. В нем особое внимание уделяется детям с серьезными заболеваниями и их социальным, психологическим и медицинским потребностям. В статье также представлена подробная информация о взглядах, принятых в обществе в отношении детей, обеспечения их прав, создания для них здоровых условий жизни и вовлечения их в индивидуальное образование.

Ключевые слова: дети с тяжелыми заболеваниями и их виды; онкологические заболевания; сердечное заболевание; генетические заболевания; социальные, психологические и медицинские потребности; участие в индивидуальном обучении

Kirish

Hozirgi kunda og'ir xastalikka chalingan bolalar soni tobora ko'payib bormoqda. Og'ir xastalikka chalingan bolalar - jamiyatimizda eng ko'p e'tibor talab etadigan, hissiy va jismoniy jihatdan katta muammolarni boshdan kechiradigan bolalar toifasi. Shu nuqtai nazardan, bu bolalarni individual ta'limga jalb qilish va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Og'ir xastaliklari bo'lgan bolalar jamiyatimizda eng ko'p e'tibor talab etadigan, hissiy va jismoniy jihatdan katta muammolarni boshdan kechiradigan bolalar toifasidir. Ularning sog'lig'i va farovonligi nafaqat ularning o'ziga, balki butun jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Ularning hayoti va rivojlanishi ba'zan doimiy tibbiy parvarish hamda maxsus tibbiy, psixologik va pedagogik yordamni talab qiladi. Onkologik, yurak xastaliklari va genetik kasalligi kabi turlarga chalingan bolalar mavjud.

Onkologik kasalligi bo'lgan bolalar o'simta hujayralarining me'yordan chetga chiqishi va nazoratsiz o'sishi natijasida rivojlanadigan saraton kasalliklari bilan kasallangan bolalardir. Bolalardagi onkologik kasalliklar kattalarnikiga qaraganda turli xususiyatlarga ega bo'lib, ko'pincha, tez rivojlanadi va davolashda alohida yondashuvlarni talab qiladi.

Bolalarda onkologik kasalliklar turli organlarda paydo bo'lishi mumkin, masalan, leykemiya (qon saratoni), neyroblastoma (nerv tizimi saratoni), retinoblastoma (ko'z saratoni), mioblastoma kabi boshqa ko'plab turlari mavjud.

Onkologik kasalligi bo'lgan bolalar uchun erta tashxis qo'yish va davolash juda muhimdir, chunki saratonning ilk bosqichlarida aniqlanishi ko'plab hollarda muvaffaqiyatli davolanish imkoniyatlarini oshiradi. Davolashda kimyoterapiya, radioterapiya, jarrohlik aralashuvlar va immunoterapiya kabi turli usullar qo'llaniladi.

Genetik kasallikka chalingan yoshlar bu- irsiy omillar sababli nuqsonlarga uchragan bolalar. Bunday kasalliklar tug'ma bo'lib, ota-onadan bolaga meros bo'lib o'tadi. Masalan, Daun sindromi, Klinefelter sindromi, Siklik fibroza, hemofiliya va boshqa xromosomalar yoki genlarda yuzaga kelgan mutatsiyalar kiradi. Bu kasalliklar turli tizimlarga, jumladan, aqliy rivojlanish, jismoniy holat yoki immun tizimiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Og'ir xastalikka chalingan bolalar turli ta'lim muassasalarida o'qishlari mumkin, ammo ularning ta'lim olish sharoitlari ehtiyojlariga qarab moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ularning ta'lim olishi mumkin bo'lgan joylar quyidagicha:

1. Maxsus maktablar yoki sinflar: og'ir xastalikka chalingan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar yoki sinflar mavjud bo'lib, ular kasallikning turiga va bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'ladi. Bu yerda o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi va bolalar uchun individual yondashuvni amalga oshirishi kerak.

2. Maxsus guruhlar va markazlar: ba'zi bolalar uchun maxsus guruhlar yoki ta'lim markazlari tashkil etilgan, bu yerda bolaning kasalligi hamda ehtiyoji asosida ta'lim, rehabilitatsiya va qo'llab quvvatlash xizmatlari amalga oshiriladi.

3. Onlayn ta'lim: og'ir xastalikka chalingan ba'zi bolalar jismoniy ravishda ta'lim muassasasiga bora olmasliklari sababli ular onlayn ravishda ta'lim olishlari mumkin bo'ladi. Bu sharoitda o'quvchilarga individual yondashuv va doimiy qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

4. Tibbiy ta'lim muassasalari: ba'zi hollarda kasallikning turiga qarab bolalar tibbiy muassasalarda, rehabilitatsiya markazlarida yoki maxsus shifoxonalarda o'qishlari mumkin, bunda ta'lim va tibbiy yordam birgalikda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Normativ - huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida " Respublikada onkogematologik va boshqa o'tkir kasalliklarning profilaktikasi, tashxis qo'yilishi va davolashning moliyalashtirishini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident qarori loyihasi e'lon qilindi.

Qarorda qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunining 4-moddasiga binoan iste'molchilar hayoti, sog'lig'i uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) natijasida yetkazilgan zararining to'liq qoplanishini talab qilish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, ushbu Qonunning 20-moddasiga binoan iste'molchining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi, shuningdek, ko'ngilli guruhlarining davlat muassasasi shaklida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Onkogematologik va boshqa o'tkir kasalliklarga chalingan bemorlarni moliyalashtirish uchun maxsus jamg'arma tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, og'ir xastalikka chalingan bolalarni ta'limga jalb etish, ularning ta'lim olish huquqini ta'minlash va jamiyatga to'liq integratsiyasini ta'minlash muhimdir. Bunday bolalarga individual yondashuv, psixologik va tibbiy qo'llab-quvvatlash hamda o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kuzmina. M. (2019). Og'ir kasalliklari va maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar: pedagogik yondashuvlar. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
2. Erikson. E. (2018). Psixologiya va maxsus ehtiyojlar. London: Routledge.
3. Tishkov. V. (2016). Xastalikka chalingan bolalar uchun ta'lim tizimi. Sankt-Peterburg: Izd. Rus pedagogikasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi " Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunining 4-20-moddalari